



**AUM SINRIKYO SEKTASIDA ILGARI SURILGAN “APOKALIPSIS”
G‘OYASI TAHLILI**

Anvarova Muslimaxon G‘iyosiddin qizi

O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Qiyosiy dinshunoslik mutaxassisligi magistranti

E-mail: anvarovam21@gmail.com

XIX-XX asrda butun dunyoda yuz bergan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy sohalardagi rivojlanishlar bilan bir qatorda ko‘plab yangi diniy harakatlar ham paydo bo‘ldi. Bu jarayonlar G‘arb va Sharqda bir-birga o‘xshash shaklda sodir bo‘ldi. O‘tgan asrda yuzaga kelib, rivojlangan yangi diniy harakatlar qatorida apokaliptik qarashlari bilan ajralib turuvchi bir qancha oqimlar ham ommalashdi. Yaponiyada yangi diniy harakatlarning paydo bo‘lishi Takugava (1603-1867) xonadoning feodal boshqaruvi tizimi parchalana boshlagan XIX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Paydo bo‘lgan guruhlar yangi diniy harakatlar sifatida talqin qilinsada, ularning aksariyati mamlakatda mavjud bo‘lgan an‘anaviy ta’limotlar buddaviylik, sintoiylik va xristianlikka asoslangan edi¹. Bunday dinlar Yaponiya tarixiy manbalarida “ruji shukyo” (uydirma dinlar) deb nomlangan.² Shuningdek, bu kabi yangi sektalarni salbiy ma’noda tavsiflovchi shinko shukyo (yangi paydo bo‘lgan dinlar) tushunchasidan ham foydalaniladi³. Biroq zamonaviy yapon dinshunos olimlari tomonidan YDHni ta’riflashda shinshukyo (yangi dinlar) hamda “shinshinshukyo” (“yangi” yangi dinlar) atamasidan ko‘proq foydalaniladi. Yangi diniy harakatlarning shiddat bilan ko‘payishi Ikkinchi jahon urishidan keyingi davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz davrida sodir bo‘ldi.

¹ Benjamin Dorman. Celebrity Gods: New Religions, Media and Authority in Occupied Japan. Honolulu: University of Hawai’i Press, 2012. – P. 3.

² Erica Baffelli. Media and New Religions in Japan. New York: Routledge, 2016. – P. 5.

³ Benjamin Dorman. Celebrity Gods: New Religions, Media and Authority in Occupied Japan. Honolulu: University of Hawai’i Press, 2012. – P. 7.





Tadqiqotchilar tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra mamlakatda 300-400 atrofida YDH paydo bo'lgan⁴.

Aum sinrikyo (yap. オウム真理教 – “Oumu Shinrikyo” (Aum oliy haqiqati)) harakati ham shu davrda Yaponiyada vujudga kelgan apokaliptik qarashlarga ega yangi diniy harakatlardan biri edi. Dastlab kichik bir yoga guruhi sifatida boshlangan Aum sinrikyo harakati, amalga oshirgan zo'ravonlik harakatlari tufayli dunyo miqyosida buzg'unchi harakat sifatida tanildi. Sektaning ta'siri natijasida zamonaviy Yaponiya jamiyatning dinga bo'lgan nuqtai nazari sezilarli darajada o'zgardi. Aum sinrikyo harakatining 1990-yillar o'rtalarida, terrorchilik hujumidan oldin 40 000 dan ortiq a'zoga ega bo'lgani haqida ma'lumotlar mavjud. Bu tarafdorlarning 30 000 mingga yaqini Rossiyada yashagani aytiladi⁵. Shu nuqtai nazardan, harakatning paydo bo'lgan joyi Yaponiyada bo'lsada, izdoshlarining asosiy qismi Rossiyada yashagani diqqatga sazovor jihat sifatida ko'zga tashlanadi. Harakatning vujudga kelishi uning yetakchisi Asahara Soko (1955-2018) hayoti va qarashlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Uning hayotiy faoliyati kelajakdagi harakatlari uchun asos bo'lib xizmat qilgan. Aum sinrikyo asoschisi Asahara Soko (Tidzuo Matsumoto) 1955-yili Yaponiya janubidagi Kyushu orolining Kumamoto prefekturasida yetti bolali kambag'al oilada tug'ilgan. Uning asl ismi Tidzuo Matsumoto bo'lib, 1987 yilda diniy yetkachiga aylangandan so'ng Asaxara Soko ismini olgan⁶. U glaukoma kasalligi bilan tug'ilgan bo'lib, bir ko'zi butunlay ko'rmagan, ikkinchi ko'zi esa qisman ko'rish qobiliyatiga ega edi⁷. Uning akasida ham ko'rish qobiliyatining

⁴ Franz Winter. Japanese New Religious Movements: Introduction. Lukas Pokorny ve Franz Winter (Ed.), Handbook of East Asian New Religious Movements, Leiden & Boston: Brill, 2018. – P. 18.

⁵ Frances L. Flannery. Understanding Apocalyptic Terrorism. London & New York: Routledge, 2016. – P. 222.

⁶ Ian Reader. A Poisonous Cocktail? Aum Shinrikyo's Path to Violence. Denmark: NIAS Press, 1996. – P. 19.

⁷ John R. Hall, Philip D. Schuyler va Sylvaine Trinh. Apocalypse Observed: Religious Movements and Violence in North America, Europe and Japan. New York: Routledge, 2000. – P. 85.





yo'qolishi tufayli, ular ko'zi ojizlar uchun mo'ljallangan maxsus maktabda ta'lim oladi. Maktabdagi barcha o'quvchilar va o'qituvchilarning aksariyati ko'zi ojiz bo'lgani bois, u yerdagi qisman ko'rish qobiliyatiga ega bo'lgan yagona shaxs Asahara bo'lgan. Bu holatdan foydalangan Asahara, sinfdagi boshqa do'stlari ustidan hukmronlik qilishga uringani haqida ma'lumotlar mavjud⁸. Bundan tashqari, u qisman ko'rish qobiliyatidan foydalanib, do'stlarining istaklarini bajarish evaziga, ulardan pul talab qilgan⁹. Qariyb o'n to'rt yil davomida ko'zi ojizlar orasida ko'rish qobiliyatiga ega yagona shaxs sifatida yashash, Asaharada kuch va hukmronlik hissiyotlarini paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Qashshoq oila muhitidan kelib chiqqaniga qo'shimcha ravishda, maktabdagi bu imtiyozli holati, keyinchalik u tomonidan tuzilgan harakatni tushunishda muhim ahamiyatga egadir. Yoshligidanoq maktab-internatga yuborilishi natijasida, o'z oilasidan uzoqlashgan Asahara, harakat a'zolaridan ham oilalarini tark etishni talab qilgan¹⁰.

Asahara maktabni tugatgach, bir muddat Kyushu shahrida massajchi va akupunkturist bo'lib ishlaydi. 1976-yili tan jarohati yetkazishda ayblanib, ma'muriy javobgarlikka tortiladi¹¹. 1977-yili Tokyoga ko'chib o'tgan Asahara, universitetga kirish uchun imtihonlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida akupunktura orqali davolash orqali tirikchilik qiladi. Universitetga kira olmagach, 1978-yili turmush qurib, to'rt qiz va ikki o'g'ildan iborat jami 6 nafar farzand ko'radi. Uchinchi farzandi bo'lmish qizi, Aum harakati ichida uning ma'naviy vorisi sifatida qaralgan. Bundan tashqari, uning rafiqasi Matsumoto Tomoko ham

⁸ Watanabe Manabu. Religion and Violence in Japan Today: A Chronological and Doctrinal Analysis of Aum Shinrikyo. Terrorism and Political Violence, Vol.10, No.4, 1998. – P. 84.

⁹ Robert Jay Lifton. Destroying the World to Save It: Aum Shinrikyo, Apocalyptic Violence and the New Global Terrorism, New York: Metropolitan Books, 1999. - P. 15.

¹⁰ Emine Battal. Aum Shinrikyo. Süleyman Turan va Emine Battal (Ed.), Yeni Dini Hareketler Ansiklopedisi içinde, İstanbul: Okur Akademi, 2020. – S. 77.

¹¹ Watanabe Manabu. Religion and Violence in Japan Today: A Chronological and Doctrinal Analysis of Aum Shinrikyo. Terrorism and Political Violence, Vol.10, No.4, 1998. – P. 82.





harakat ichida muhim o'rinni egallagan¹² bo'lib, vaqti-vaqti bilan bag'ishlov marosimlarini o'tkazgan.

Asahara turmush qurgach, xitoy o'simliklaridan tayyorlangan dori-darmonlarni sotish bilan shug'ullanadi. Biroq litsenziyasiz dorivor giyohlar sotgani uchun hibsga olinib, jazolanadi¹³. Tokioga ko'chib kelganidan so'ng dinga qiziqishi boshlagani Asahara turli yangi diniy oqimlar ustida izlanishlar olib boradi¹⁴. Ulardan biri yangi diniy harakatlardan bo'lmish "Ilohiy nur jamiyati" (God Light Association¹⁵) bo'lib, uning asoschisi Shinji Takaxashidir (1927-1976). Asaharaning diniy qarashlaridagi haqiqiy burilish nuqtasi uning Agonshu YDHga qo'shilishi edi¹⁶. Agonshu asoschisi Seiyu Kiriyaama (1921-2016) uning ta'limoti va yoga marosimlarini bajarganlar kelajakni oldindan ko'rish va unga ta'sir o'tkaza olish qobiliyatiga ega bo'lishini da'vo qilgan¹⁷. 1981-1984-yillar oralig'ida Agonshu harakati a'zosi bo'lgan Asahara, keyinchalik Aum sinrikyo ta'limotini shakllantirishda Kiriyaamaning buddaviylikka asoslangan ezoterik qarashlari hamda Agonshu g'oyalaridan foydalangan¹⁸. Asahara bu harakat a'zosi bo'lgan vaqtda ming kun davomida har kuni qirq daqiqa sutralarni takrorlash va boshqa maxsus marosimlardan iborat senzagyoyo amaliyotini o'taydi. Senzagyoyoni muvaffaqiyatli yakunlagach,

¹² Erica Baffelli. Aum Shinrikyo. Handbook of East Asian New Religious Movements. Leiden & Boston: Brill, 2018. – P. 194.

¹³ Ian Reader. A Poisonous Cocktail? Aum Shinrikyo's Path to Violence. Denmark: NIAS Press, 1996. – P. 21.

¹⁴ Shimazono Susumu. In the Wake of Aum: The Formation and Transformation of a Universe of Belief. Japanese Journal of Religious Studies, Vol.22, No.3-4. 1995. – P. 384.

¹⁵ Ian Reader. A Poisonous Cocktail? Aum Shinrikyo's Path to Violence. Denmark: NIAS Press, 1996. – P. 20.

¹⁶ Shimazono Susumu. In the Wake of Aum: The Formation and Transformation of a Universe of Belief. Japanese Journal of Religious Studies, Vol.22, No.3-4. 1995. – P. 385.

¹⁷ John R. Hall, Philip D. Schuyler va Sylvaine Trinh. Apocalypse Observed: Religious Movements and Violence in North America, Europe and Japan. New York: Routledge, 2000. – P. 85.

¹⁸ Erica Baffelli. Aum Shinrikyo. Handbook of East Asian New Religious Movements. Leiden & Boston: Brill, 2018. – P. 195.





u o'zini uyg'onishga erishganini da'vo qiladi¹⁹. Bu tajriba uning keyingi mistik va g'ayritabiiy qobiliyatlar haqidagi da'volariga asos bo'lib xizmat qiladi.

1984-yilda Asahara o'z atrofida to'plangan 15 kishi bilan birgalikda Agonshu harakatidan ajralib chiqib, "Aum no Kai" (Aum jamiyati) nomli yangi guruhga asos soladi. Bir yildan so'ng, "Twilight Zone" jurnalining muqovasida Asaharaning lotus (nilufar) guli holatida havoga ko'tarilayotgani tasvirlangan fotosurati nashr etiladi. Bu voqea uning g'ayritabiiy qobiliyatlarga ega ekanligi haqidagi e'tiqodni kuchaytirib, izdoshlari sonining keskin o'sishiga sabab bo'ldi²⁰.

1986-yilda Asahara Himalay tog'lariga safar qilib, turli meditatsiya amaliyotlari orqali "ma'rifat" (aylanish) erishganini da'vo qiladi²¹. Hindistondan qaytgach, u asos solgan yoga guruhi nomi "Aum shinsen no Kai" (Aum zohidlar jamiyati) deb o'zgartiriladi. 1987-yilga kelib, bu tashkilot "Aum sinrikyo" (Aum oliy haqiqati) nomi ostida rasman diniy tashkilot maqomini oladi²². Shu davrdan boshlab, asl ismi Matsumoto Chizuo bo'lgan guruh yetakchisi o'zini Asahara Soko deb atay boshlaydi²³. Bu o'zgarishlar Asaharaning mistik xarizmatik obro'sini mustahkamlash va Aum sinrikyo harakatini yanada tizimli diniy tashkilotga aylantirish jarayonini aks ettiradi.

Aum sinrikyo diniy tashkilotga aylangach, asl maqsadi va yo'nalishi o'zgarganini kuzatish mumkin. Shaxsiy rivojlanishni maqsad qilgan kichik yoga guruhi sifatida paydo bo'lgan harakat, endilikda boshqa odamlarni ham qutqarishni maqsad qilgan diniy e'tiqod sifatida taqdim qilina boshlaydi.

¹⁹ Robert Jay Lifton. Destroying the World to Save It: Aum Shinrikyo, Apocalyptic Violence and the New Global Terrorism, New York: Metropolitan Books, 1999. – P. 19.

²⁰ Watanabe Manabu. Aum Shinrikyo. Encyclopedia of Religion, Vol.2, USA: Thomson Gale, 2005. – P. 631.

²¹ Asahara Shoko. Supreme Initiation. Tar. Jaya Prasad Nepal va Yoshitaka Aoki, New York: AUM USA, 1988. – P. 11.

²² Watanabe Manabu. Aum Shinrikyo and Its Use of the Media. Bulletin of the Nanzan Institute for Religion and Culture, Vol. 29, 2005. – P. 43.

²³ Qarang: Martin Repp. Aum Shinrikyo and the Aum Incident: A Critical Introduction, James R. Lewis va Jesper Aa. Petersen (Ed.). Controversial New Religions. UK: Oxford 2014. – pp. 154-185.





1989-yili Aum sinrikyo davlat tomonidan rasman tan olinadi. Asahara din orqali erishib bo'lmaydigan maqsadlarga siyosat orqali erishish mumkinligini ta'kidlab, "Shinri-to" (Haqiqat partiyasi)ga asos soladi. Partiya 1990-yilgi parlament saylovlarida qatnashgan bo'lsa-da, muvaffaqiyat qozona olmaydi. Aum harakati bu mag'lubiyat ortida ularni yo'q qilishni maqsad qilgan fitnachilar borligini da'vo qiladi. Asahara esa saylov natijasini jamoatchilik tomonidan rad etilish sifatida baholaydi²⁴. Bu voqea harakatning g'ayriijtimoiy qarashlarini yanada kuchayishiga olib keladi va ularning dunyoning oxiri hamda qiyomat yaqinlashgani haqidagi ta'limotini yanada salbiy tus olishiga sabab bo'ladi. Bu jarayon Aum sinrikyo harakatining radikallashuviga va oxir-oqibat 1995-yilda Tokio metrosida amalga oshirilgan zaharli gaz hujumi kabi dahshatli voqealarga olib kelgan yo'lni boshlab beradi.

Vaqt o'tishi bilan Asaharaning "qutqaruv" va "najot" haqidagi tushunchasi o'zgara boshladi. Dastlabki davrlarda u intensiv meditatsiya orqali dunyoni yomon karmalardan tozalab, ma'naviy yangilashni maqsad qilgan bo'lsa, keyinchalik Vahiy Kitobi va Nostradamusning bashoratlaridan ta'sirlanishi natijasida, qiyomat va unga olib keluvchi jang (Armagedon va apokalipsis) haqida gapira boshlaydi²⁵. U 1999-yilda bo'lib o'tishi kutilayotgan va faqatgina Aum a'zolari qutulib qolishi mumkin bo'lgan uchinchi jahon urushi haqidagi qarashlarni ilgari suradi. Biroq, keyinchalik bu sanani yanada yaqinlashtirib, oxirzamon 1995-yilda sodir bo'lishini e'lon qiladi²⁶.

Asaharaning oxirzamon haqidagi bu qarashlari u oldin a'zo bo'lgan Agonshu diniy harakatidan olinib Aumga tatbiq etgan muhim g'oyalardan biridir. Agonshu asoschisi Kiriyaama ham o'tmishdan qolgan salbiy karma tufayli 1999-

²⁴ Watanabe Manabu. Religion and Violence in Japan Today: A Chronological and Doctrinal Analysis of Aum Shinrikyo. Terrorism and Political Violence, Vol.10, No.4, 1998. – P. 90.

²⁵ Catherine Wessinger. How the Millennium Comes Violently: From Jonestown to Heaven's Gate. New York: Seven Bridges Press, 2000. – P. 127.

²⁶ Frances L. Flannery. Understanding Apocalyptic Terrorism. London & New York: Routledge, 2016. – P. 222.





yilda qiyomat bo'lishini da'vo qilgan. Biroq u, ma'naviy choralar orqali dunyoni halokatdan qutqarish mumkinligiga ishongan. Shu nuqtai nazardan, Agonshu haqiqiy buddizmni tiklab, dunyoga tinchlik olib keladi, deb hisoblangan. Kiriyaning Nostradamus asarlariga bo'lgan qiziqishi uning 1999-yilgi falokat haqidagi bashoratlariga ta'sir ko'rsatgan. Xuddi shunday, Asahara ham Nostradamusdan chuqur ta'sirlanib, dunyoning oxiri to'g'risidagi bashoratlarini ilgari surgan. Dastlab nisbatan optimistik qiyomat senariysiga ega bo'lgan Aum harakati, vaqt o'tishi bilan antisotsial munosabtning kuchayishi natijasida bu tushunchani yanada salbiy ruhda talqin qila boshlaydi.

1995-yili mart oyida Tokio metrosida ertalabki ish vaqtida zarin gazi orqali amalga oshirilgan hujumi natijasida 12 kishi halok bo'ladi, minglab odamlar zaharlanadi. Voqeadan so'ng Asahara Soko va uning 12 tarafdori o'lim jazosiga hukm qilinadi, jami 180 Aum a'zosi qamoqqa olinadi. 2004 yilda o'lim jazosiga hukm qilingan Asahara, 2018-yili barcha apellyatsiya huquqlari tugagach, osish yo'li bilan qatl etiladi.

Aum sinrikyo asoschisi sifatida tanilgan Asahara Soko diniy faoliyatining dastlabki yillaridanoq harakat ta'limotlarini tushuntiruvchi kitoblar yozishni boshlagan. Asaharaning 1986-yilda yozgan ilk kitobi "Chonoryoku: Himitsu no Kaihatsu" (Ruhiy quvvat: Maxfiy rivojlanish usuli) harakatning dastlabki davrlaridagi g'oyalarni aks ettiradi²⁷. Asar asosan yoga amaliyotlariga asoslangan bo'lib, unda taklif etilgan uslub va texnikalar Agonshu harakati asoschisi Kiriyaning "Mikkyo" (Maxfiy ta'limot) asaridagi elementlar bilan sezilarli darajada mos keladi. "Seishi o Koeru" (Hayot va o'limni yengish) 1986-yilda yozilgan bu asarda Asahara buddaviylik falsafasidagi qarashlar va satori (ma'rifat) ta'limotini muhokama qilgan. U satoriga erishish uchun

²⁷ Catherine Wessinger. How the Millennium Comes Violently: From Jonestown to Heaven's Gate. New York: Seven Bridges Press, 2000. – P. 127.





qadimgi buddaviylik amaliyoti bo'lgan shinensho (to'g'ri tushuncha)ni chuqur o'zlashtirish zarurligini ta'kidlagan. Uning yana bir asari "Inisheshon" (Bag'ishlov) bo'lib, 1987-yilda nashr etilgan va 1988-yili "Supreme initiation" nomi bilan ingliz tiliga tarjima qilingan bu asarda Aum harakatining xaloskorlik e'tiqodini tizimli tarzda bayon qilingan. Asarning markaziy g'oyasi bag'ishlov marosimi hisoblanadi.

Matsumoto apokaliptik mavzularda ham bir qator kitoblar yozgan bo'lib, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: "Metsubo no Hi" (Qiyomat kuni) va uning davomi "Metsubo Kara Koko e: Zoku Metsubo no Hi" (Xarobadan bo'shliqqa: Qiyomatning davomi) bu kitoblar 1988-yili Vahiy Kitobiga izoh sifatida yozilgan. Kitoblarda apokalipsisdan tashqari ba'zi bashoratlar ham keltirilgan bo'lib, ulardan biri 2004-yilda Sovet ittifoqining qulashi haqidadir²⁸. Bundan tashqari, Mahayana va Vajrayana Sakka nomli oylik jurnallar ham chop etilib, varaqa shaklida ommaga tarqatilgan²⁹.

Asahara shakllantirgan apokaliptik e'tiqod tizimiga asosan ikkita asosiy manba Nostradamusning bashoratlari va Vahiy kitobidagi qiyomat tasvirlari katta ta'sir ko'rsatgan. Dastlab Aum o'z qarashlarida dunyodagi yaxshilik va yomonlik kuchlari o'rtasida sodir bo'ladigan kosmik urush haqidagi g'oyani ilgari surgan. Bu kosmik kurash konsepsiyasiga ko'ra, Asahara va uning izdoshlari insoniyatni qutqaruvchi kuch sifatida faol ishtirok etishi, shu bilan birga yangi ma'naviy davrning boshlanishiga yo'l ochishi nazarda tutilgan. Ushbu g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish maqsadida 1980-yillarning oxirlarida Aum harakati "Lotus qishloqlari" deb nomlangan maxsus turar-joy majmualarini qurishni boshlagan. Mazkur aholi turar-joylari kelajakda shakllanishi kutilayotgan yangi

²⁸ Shimazono Susumu. In the Wake of Aum: The Formation and Transformation of a Universe of Belief. Japanese Journal of Religious Studies, Vol.22, No.3-4. 1995. – P. 397.

²⁹ Qarang: Richard A. Gardner. Aum Shinrikyo and A Panic About Manga and Anime. Mark W. MacWilliams (Ed.), Japanese Visual Culture: Explorations in the World of Manga and Anime. NY: M. E. Sharpe, 2008. – pp. 200-218.





dunyo (Shambhala) tizimining rivojlanishida markaziy rol o'ynashi rejalashtirilgan³⁰.

Matsumoto 1999-2003-yillar oralig'ida yadroviy urush bo'lishi haqidagi da'voni ilgari suradi. Shu bilan birga, bu urushning oldini olish mumkin bo'lgan yechimni ham taklif qiladi. Unga ko'ra, agar 1993-yilgacha har bir davlatda Aum tashkilotining kamida ikkita filiali tashkil etilgan bo'lsa, urushning oldini olish mumkin bo'lishi aytiladi. Aum filiallaridagi ma'rifatga erishgan shaxslar odamlarni o'ldirish, zo'ravonlik va urushdan voz kechishga undab, tushuntirish ishlari olib borishi aytilgan. Bu ishlar natijasida odamlar Aum ta'limotiga amal qilsa, Uchinchi jahon urushi boshlanishining oldini olish mumkin³¹ ekani da'vo qilingan.

Asahara, jahon urushining yuz berish ehtimoliga qarshi Aum a'zolariga o'ziga xos qutulish yo'lini taklif etadi. Agar biror shaxs tilga olingan global urush boshlangunga qadar mutlaq ozodlik holatiga erishgan bo'lsa, u ushbu falokatdan qutulishi mumkin. Bu holat quyidagicha izohlanadi: Agar ong jismoniy tanadan astral tanaga o'tkazilsa, urush ro'y berib, jismoniy tana yo'q bo'lishiga qaramasdan, astral tana tirik qoladi va inson yashashda davom etadi. Urush tugagach, bu dunyoda yoki boshqa sayyorada yangi tana bilan qayta tug'ilish imkoniyati mavjud bo'ladi³².

Asaharaga mahdiylik xususiyatlarining berilishi 1985-yillarga borib taqaladi³³. Asaharaning ta'kidlashicha, bir kuni Shiva unga zohir bo'lib, uni "Abiraketsu no Mikoto" (Yorug'lik xudosi) etib tayinlagan³⁴. Shundan so'ng,

³⁰ Ian Reader. Aum Shinrikyo. Encyclopedia of Millennialism and Millennial Movements, London & New York: Routledge, 2000. – pp. 73-78.

³¹ Asahara Shoko. Supreme Initiation. Tar. Jaya Prasad Nepal va Yoshitaka Aoki, New York: AUM USA, 1988. – P. 88.

³² O'sha manba. – P. 91.

³³ Erica Baffelli. Aum Shinrikyo. Handbook of East Asian New Religious Movements. Leiden & Boston: Brill, 2018. – P. 200.

³⁴ Qarang: Watanabe Manabu. Salvation and Violence in Japanese Buddhism: The Case of Aum Shinrikyō. The Dao Companions to Chinese Philosophy. Netherlands: Springer, 2019. – pp. 287-304.





Asahara o'zini xudolar qo'shinlariga boshchilik qiluvchi Yorug'lik xudosi ekanligini va ruhiy qudratga ega bo'lgan shaxslardan iborat ideal jamiyat (Shambhala qirolligi) barpo etish vazifasi yuklatilganligini e'lon qilgan. Asahara tilga olgan Shambhala tushunchasi ezoterik buddaviylik matni bo'lgan Kalachakra Tantradan olingan bo'lib, ushbu matnga ko'ra, Shambhala shimoli-sharqiy Osiyoda joylashgan yashirin vodiidir. Shambhalaning ideal qiroli – kofirlarga qarshi olib boriladigan jangda masih sifatida g'alaba qozonib, buddaviylik hukmronligini o'rnatishi aytilgan³⁵.

Aum harakatiga asos solgan dastlabki davrlaridanoq Asahara apokaliptik qarashlarga ega bo'lgan. Dastlab Aum yaxshilar bilan yomonlar o'rtasida bo'lib o'tadigan so'nggi jangda yer yuzidagi barcha insonlarning najot topishi mumkinligini ilgari suradi³⁶. Biroq, parlament saylovlaridagi mag'lubiyatlardan so'ng jamiyat bilan yuzaga kelgan ziddiyatlar natijasida Asaharaning najot rejasida asta-sekin halokat rejasiga aylangan³⁷. Ayniqsa, u tilga olgan jang sanasi ham o'zgartirilib, dastlab 1999-yil deb ko'rsatilgan sana keyinchalik 1997 va 1995-yillarga almashtiriladi. Ushbu jangda biologik va kimyoviy qurollar qo'llanilishi ko'zda tutilgan bo'lib, undan qutulish uchun ma'naviy tarbiya orqali g'ayritabiiy qudratga ega bo'lish talab etilgan³⁸. Bu najotga erishish uchun esa Aum a'zosi bo'lish shartligi ta'kidlangan.

Asaharaning armagedon borasidagi bashorati asoslarini yapon buddizimi matnlarida mavjud bo'lgan kosmik tarix tushunchasida ko'rish mumkin. Ushbu tushunchaga ko'ra, insoniyat Buddaning vafotidan keyin har biri ming yillik

³⁵ Shimazono Susumu. In the Wake of Aum: The Formation and Transformation of a Universe of Belief. Japanese Journal of Religious Studies, Vol.22, No.3-4. 1995. – P. 388.

³⁶ Ian Reader. Dramatic Confrontations: Aum Shinrikyo against the World. Cults, Religion and Violence, UK: Cambridge University Press, 2004. – P. 194.

³⁷ Watanabe Manabu. Aum Shinrikyo and Its Use of the Media. Bulletin of the Nanzan Institute for Religion and Culture, Vol. 29, 2005. – P. 46.

³⁸ Ian Reader. Dramatic Confrontations: Aum Shinrikyo against the World. Cults, Religion and Violence, UK: Cambridge University Press, 2004. – P. 195.





muddatdan iborat uch davrni boshida kechiradi. Bu bosqichlardan birinchisi “shoko” deb ataladi va Buddaning ta’limotlari amalda qo’llaniladigan oltin davr sifatida tasvirlanadi. “zoho” deb nomlanuvchi ikkinchi ming yillikda umumiy ma’noda Budda ta’limotlariga rioya qilinsada, to’g’ri e’tiqoddan og’ishlar yuzaga keladi. Uchinchi va oxirgi ming yillik davr esa “mappo” deb atalib, bu bosqichda Budda ta’limotlari unutilgan qashshoqlik va tanazzul zamoni sifatida tasvirlanadi. Asahara ular yashayotgan zamon “mappo” davri ekanligini va armagedonning yaqinlashib kelayotganini ilgari surgan³⁹.

Buddaviylikdagi kosmik tarixga o’xshash tushunchalar hinduiylikda ham mavjuddir. Hinduiylik ta’limotiga ko’ra, kosmik tarix va vaqt to’rt yuga (bosqich)dan iborat bo’lib, ularning oxirgisi kaliyuga davri hisoblanadi. Asahara o’zini aynan shu kaliyuga bosqichida yashaganligini ta’kidlagan⁴⁰. Kaliyuga – yovuzlik, dinsizlik va falokatlar avj olgan zamon sifatida tasvirlanadi. Ushbu davrda dinsizlikka qarshi kurashish uchun Kalki ismli xaloskor dunyoga keladi. Kaliyuganing oxirida esa butun olam yo’q bo’lib, uning o’rniga yangi bir olam paydo bo’ladi.

Aum harakatining markaziy va hurmatga sazovor ilohiy figurasini sifatida Shiva gavdalanadi hamda Asahara o’zining ma’rifatga erishishini aynan shu iloh tomonidan tasdiqlanganini da’vo qiladi⁴¹. Asosan buddaviylik ta’limotlariga asoslangan Aumning hinduiylik xudosi Shivani iloh sifatida tan olishining ham o’ziga xos sabablari bor. Asaharaning ma’naviy yo’lida Shivaning tutgan o’rnini uning quyidagi so’zlarida yanada aniq namoyon bo’ladi: “Bu hayotda mening

³⁹ Daniel A. Metraux. Religious Terrorism in Japan: The Fatal Appeal of Aum Shinrikyo. Asian Survey, Vol.35, No. 12, 1995. – P. 1145.

⁴⁰ Robert Jay Lifton. Destroying the World to Save It: Aum Shinrikyo, Apocalyptic Violence and the New Global Terrorism, New York: Metropolitan Books, 1999. - P. 48.

⁴¹ Martin Repp. Aum Shinrikyo and the Aum Incident: A Critical Introduction. Controversial New Religions, UK: Oxford 2014. – P. 160.





hech qanday ustozim yo'q. O'tmishdagi hayotlarimdan qolgan xotiralarimga tayanib, o'zimga yo'l ko'rsatdim. Qiyin vaziyatga tushganimda esa, tangri Shiva menga yo'l ko'rsatdi"⁴². Biroq, keyingi davrlarda Asahara o'zini hinduiylik ilohi Shivaning yerdagi avatari (enkarnatsiyasi) sifatida e'lon qiladi.

Asaharaning tangri sifatida Shivani tanlashining ikkita sababi mavjud. Birinchisi, Shiva yoga tangrisi sifatida tanilgan. Yoga va meditatsiya Asahara qarashlarida muhim o'rin tutgan. Ikkinchi sababi esa hinduiylik ilohlar panteonida Shiva halokatlar orqali yangi davrlar boshlanishiga rahbarlik qiluvchi urush va xaos tangrisi sifatida namoyon bo'ladi. Asaharaning dunyoning oxiri, armagedon, apokalipsis va najot topish haqidagi qarashlari shakllanishida Shivaning ham o'ziga xos o'rnini mavjuddir.

Xulosa qilib aytganda, eklektik (aralash) diniy harakat bo'lgan Aum sinrikyoning apokaliptik qarashlari – Vahiy Kitobi, Nostradamusning bashoratlari, buddaviylik va hinduiylikning kosmik tarix tushunchalari kabi turli manbalardan olingan elementlarning sintezidan iborat ta'limot sifatida namoyon bo'ladi. Asahara ushbu harakatning apokaliptik g'oyalaridan foydalanib, a'zolar sonini oshirishga intilgan va oxir-oqibat o'z bashoratini amalga oshirish maqsadida zo'ravonlik harakatlariga qo'l urgan.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar

1. Asahara Shoko. Supreme Initiation. Tar. Jaya Prasad Nepal va Yoshitaka Aoki, New York: AUM USA, 1988. – P. 11.

⁴² Asahara Shoko. Supreme Initiation. Tar. Jaya Prasad Nepal va Yoshitaka Aoki, New York: AUM USA, 1988. – P. 98.





2. Benjamin Dorman. Celebrity Gods: New Religions, Media and Authority in Occupied Japan. Honolulu: University of Hawai'i Press, 2012. – P. 3.
3. Catherine Wessinger. How the Millennium Comes Violently: From Jonestown to Heaven's Gate. New York: Seven Bridges Press, 2000. – P. 127.
4. Daniel A. Metraux. Religious Terrorism in Japan: The Fatal Appeal of Aum Shinrikyo. Asian Survey, Vol.35, No. 12, 1995. – P. 1145.
5. Erica Baffelli. Media and New Religions in Japan. New York: Routledge, 2016. – P. 5.
6. Erica Baffelli. Aum Shinrikyo. Handbook of East Asian New Religious Movements. Leiden & Boston: Brill, 2018. – P. 194.
7. Emine Battal. Aum Shinrikyo. Süleyman Turan va Emine Battal (Ed.), Yeni Dini Hareketler Ansiklopedisi içinde, İstanbul: Okur Akademi, 2020. – S. 77.
8. Franz Winter. Japanese New Religious Movements: Introduction. Lukas Pokorny ve Franz Winter (Ed.), Handbook of East Asian New Religious Movements, Leiden & Boston: Brill, 2018. – P. 18.
9. Frances L. Flannery. Understanding Apocalyptic Terrorism. London & New York: Routledge, 2016. – P. 222.
10. Ian Reader. A Poisonous Cocktail? Aum Shinrikyo's Path to Violence. Denmark: NIAS Press, 1996. – P. 19.
11. John R. Hall, Philip D. Schuyler va Sylvaine Trinh. Apocalypse Observed: Religious Movements and Violence in North America, Europe and Japan. New York: Routledge, 2000. – P. 85.
12. Martin Repp. Aum Shinrikyo and the Aum Incident: A Critical Introduction, James R. Lewis ve Jesper Aa. Petersen (Ed.). Controversial New Religions. UK: Oxford 2014. – pp. 154-185.





13. Richard A. Gardner. Aum Shinrikyo and A Panic About Manga and Anime. Mark W. MacWilliams (Ed.), Japanese Visual Culture: Explorations in the World of Manga and Anime. NY: M. E. Sharpe, 2008. – pp. 200-218.

14. Robert Jay Lifton. Destroying the World to Save It: Aum Shinrikyo, Apocalyptic Violence and the New Global Terrorism, New York: Metropolitan Books, 1999. - P. 15.

15. Shimazono Susumu. In the Wake of Aum: The Formation and Transformation of a Universe of Belief. Japanese Journal of Religious Studies, Vol.22, No.3-4. 1995. – P. 384.

16. Watanabe Manabu. Religion and Violence in Japan Today: A Chronological and Doctrinal Analysis of Aum Shinrikyo. Terrorism and Political Violence, Vol.10, No.4, 1998. – P. 84.

17. Watanabe Manabu. Aum Shinrikyo and Its Use of the Media. Bulletin of the Nanzan Institute for Religion and Culture, Vol. 29, 2005. – P. 43.

